FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY SHERIKLIKNING O‘RNI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА: ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО И ПРАКТИКА

THE ROLE OF SOCIAL PARTNERSHIP IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY: LEGISLATION AND PRACTICE

Toxirjon Zokir o‘g‘li Axmadjonov
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Tarix mutaxasisligi magistranti
Ish joyi: *Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*
E-mail: ahmadjonovtohirjon747@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy sheriklikning nazariy va huquqiy asoslari, shu bilan birga, O‘zbekistonda bu mexanizmning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Ijtimoiy sheriklik – davlat, fuqarolik jamiyati institutlari (NNT, OAV, kasaba uyushmalari, mahalla) va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik asosida ijtimoiy muammolarni hal qilish, boshqaruvda ochiqlik va ishtirokni kengaytirish vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Yangi O‘zbekiston” davrida bu tizim raqamli islohotlar, jamoatchilik kengashlari, ochiq ma’lumotlar siyosati orqali sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Maqolada mavjud muammolar, xorijiy tajriba va istiqbolli takliflar asosida ijtimoiy sheriklikning kuchli modelini shakllantirish yo‘llari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, ijtimoiy sheriklik, davlat va jamiyat, nodavlat tashkilotlar, ochiqlik, hamkorlik, raqamli islohotlar.

ABSTRACT

This article explores the theoretical and legal foundations of social partnership in the development of civil society in Uzbekistan. Social partnership is

defined as a cooperative mechanism through which the state, civil society institutions (such as NGOs, the media, trade unions, and neighborhood committees), and citizens jointly address social issues and promote participatory governance. In the era of “New Uzbekistan,” the system has reached a new level through digital transformation, public councils, and open data policies. The article also analyzes existing challenges and draws on international experience to propose strategies for building a robust and effective model of social partnership in Uzbekistan.

Keywords: civil society, social partnership, state and society, NGOs, openness, cooperation, digital transformation.

Zamonaviy demokratik jamiyatlarning asosiy belgilari qatorida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtiroki, davlat boshqaruvi ustidan jamoatchilik nazorati va davlat–jamiyat munosabatlarining muvozanatli shakli muhim o‘rin tutadi. Bunday tizimni barpo etishda fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik mexanizmlarining samarali ishlashi asosiy mezonlardan biridir. Ushbu tushuncha, bir tomondan, ijtimoiy barqarorlik va davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlasa, boshqa tomondan, fuqarolarning huquqiy faolligini kuchaytirish, ularni ijtimoiy mas’uliyatli subyektga aylantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy sheriklik o‘z mohiyatiga ko‘ra davlat, fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, mahalla fuqarolar yig‘inlari va boshqalar) hamda fuqarolarning o‘zaro hamkorlikda, tenglik va ochiqlik asosida ijtimoiy muammolarni aniqlash, hal qilish va nazorat qilish jarayonidi. U nafaqat boshqaruvda ishtirok shakli, balki siyosiy madaniyat va fuqarolik mas’uliyatining shakllanish mexanizmi sifatida ham ahamiyatlidir.

Xalqaro tajriba, xususan Germaniya [1], Janubiy Koreya [2], Shvetsiya [3], Kanada [4] kabi davlatlar misolida ijtimoiy sheriklik mexanizmlari orqali davlat

xizmatlarining shaffofligi, resurslardan samarali foydalanish va fuqarolarning ishonchini oshirish borasida yuqori natijalar qayd etilgan.

O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” g‘oyasi [5], qolaversa, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sheriklik tamoyillarining qonuniy asosda mustahkamlanishi bu boradagi ishlarning yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [6] bu sohadagi muhim bosqichlardan biridir.

Bugungi kunda davlat idoralari va fuqarolik jamiyati subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, jamoatchilik nazorati, ochiqlik va hisobdorlik prinsiplariga asoslangan yangi institutlar — jamoatchilik kengashlari, ochiq byudjet portallari, “Xalq bilan muloqot” maydonlari kabi vositalar kengaymoqda. Biroq, mavjud qonunlar, institutlar va tashabbuslarga qaramay, amaliyotda hal qilinmagan muammolar, tashkiliy va madaniy to‘siqlar mavjudligicha qolmoqda.

Ijtimoiy sheriklik tushunchasi zamonaviy siyosiy va ijtimoiy fanlar nazariyasida davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu atama asosan ishchi-xo‘jayin munosabatlari kontekstida shakllangan bo‘lsa-da, XX asr oxiridan boshlab fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mahalla tuzilmalari va jamoatchilik kengashlariga nisbatan ham qo‘llanila boshlandi [7].

Ijtimoiy sheriklik nazariyasi turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan. G‘arb ilm-fanida bu tushuncha ko‘proq konsensus nazariyasi doirasida talqin qilinib, davlatning fuqaro bilan tenglik asosidagi muloqotini ta’minlovchi vosita sifatida qaraladi. Max Veber va Jurgen Habermas

kabi olimlar ijtimoiy sheriklikni jamoaviy aql, jamoatchilik fikri va fuqarolik faolligi bilan bog‘laydi [8].

Sharqona yondashuvda esa ijtimoiy sheriklik an’anaviy oila, mahalla, jamoa tushunchalari bilan uzviy bog‘langan. Islom huquqi va muomala tamoyillarida “maslahat”, “shura” (kengash) kabi tushunchalar orqali jamoatchilik bilan mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘zda tutiladi [9]. O‘zbekiston tajribasida bu qarashlar milliy model shakllanishida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda ijtimoiy sheriklikning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: o‘zaro ishonch, huquqiy asoslar, tashabbuskorlik, ochiqlik, tenglik va resurslarni baham ko‘rish. Ushbu mexanizm orqali fuqarolik jamiyati nafaqat muammolarni ko‘taradi, balki ularni hal etish jarayonida ham ishtirok etadi. Ayniqsa, ijtimoiy sheriklik orqali davlat siyosatining aholiga yaqinlashishi, ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi, islohotlarning samaradorligi va ijtimoiy adolat tamoyillarining amalda qo‘llanishi kuchayadi [10].

Shunday qilib, ijtimoiy sheriklik nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi barqaror munosabatlarning kalitidir. Bu munosabatlar faqat ma’muriy buyruq asosida emas, balki o‘zaro mas’uliyat va manfaatdorlikka tayanadi. Shu boisdan, ushbu tushunchaning nazariy talqinlarini chuqur anglash, uning huquqiy va institutsional asoslarini yaratish fuqarolik jamiyati rivoji uchun zarur shart hisoblanadi.

O‘zbekistonning 2017-yildan boshlab boshlangan yangi taraqqiyot bosqichi – “Yangi O‘zbekiston” davri mamlakatda ochiqlik, hisobdorlik va fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirish siyosatini olib kirdi. Ushbu islohotlar jarayonida ijtimoiy sheriklik nafaqat konseptual darajada, balki amaliy tizim sifatida shakllanib, fuqarolik jamiyatining davlat bilan hamkorlikdagi real vositasiga aylandi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi kerak” degan prinsip ijtimoiy sheriklikni amaliyotda joriy qilishning ideologik tayanchiga aylandi [11]. Bu g‘oya asosida

fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlariga tayangan siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish mexanizmlari shakllantirildi. Jumladan, 2018-yildan boshlab “Xalq qabulxonalari” tizimi joriy etilib, fuqarolarning bevosita murojaatlarini eshitish, tahlil qilish va yechim topishga qaratilgan yangicha boshqaruv yondashuvi amaliyotga kiritildi [12].

Ijtimoiy sheriklikning davlat siyosatiga chuqur integratsiyalashuvi ayniqsa 2021-yildan boshlab sezilarli tus oldi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va unga tayanch bo‘lgan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik kengashlari, NNT va OAVlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni aniq belgilanib, ular davlat organlari bilan sheriklik asosida faoliyat yurituvchi asosiy subyektlar sifatida ko‘rsatildi [13].

Amaliy jihatdan olib qaralganda, ushbu davrda bir qator institutsional mexanizmlar shakllandi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

- Jamoatchilik kengashlari – davlat organlari huzurida fuqarolik jamiyati vakillaridan tuzilgan maslahat organlari bo‘lib, ular qarorlar loyihalarini muhokama qiladi, ijtimoiy muammolar yuzasidan takliflar beradi;
- Ochiq budjet portali – fuqarolarning davlat mablag‘larining qanday taqsimlanishini kuzatishi va taklif berishiga imkon yaratuvchi raqamli platforma;
- Davlat ijtimoiy buyurtmalari va grantlar – nodavlat tashkilotlarga davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy resurslar orqali ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi;
- Mahalliy darajadagi ijtimoiy sheriklik – mahalla tizimi orqali aholi va davlat organlari o‘rtasida masalalarni joyida hal qilish, ijtimoiy muvozanatni saqlash yo‘lga qo‘yildi.

Ayni paytda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ijtimoiy sheriklikni nafaqat qulay, balki samarali tizimga aylantirdi. “my.gov.uz”, “openbudget.uz”, “xalqfikri.uz” kabi onlayn platformalar orqali aholining fikr-mulohazasi, taklif va shikoyatlari real vaqt rejimida davlat idoralariga yetkazilmoqda. Ushbu tizimlar

orqali davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlari sezilarli kengaydi [14].

Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, ijtimoiy sheriklik amaliyotida ba’zi to‘siq va kamchiliklar hamon saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim NNTlarning tashkiliy va moliyaviy barqarorligi past, davlat idoralari tomonidan fuqarolik jamiyati vakillari bilan sheriklikda ishlash madaniyati har doim ham yetarli emas, mahalliy darajadagi ijtimoiy faollik darajasi esa hududlar kesimida farq qiladi [15]. Yana bir muhim jihat shuki, jamoatchilik kengashlarining huquqiy maqomi hali ham noaniq qolmoqda, bu esa ularning ta’sirchanligini cheklab qo‘yadi.

Shunday bo‘lsa-da, “Yangi O‘zbekiston” davridagi ijtimoiy sheriklik tizimi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining amalda ishlayotgan, davlat siyosatining ajralmas qismiga aylangan real mexanizmga aylanganini ko‘rsatmoqda. Kelgusida bu tizimni takomillashtirish, u orqali fuqarolar ishtirokini kuchaytirish, islohotlarning ijtimoiy asoslanishini mustahkamlash uchun strategik zamin mavjud.

O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik tizimi huquqiy, institutsional va texnologik asosda shakllanayotganiga qaramay, uning amaliyotda to‘liq ishlashi yo‘lida qator tizimli va subyektiv to‘siqlar mavjud. Ularning ayrimlari tarixiy omillar bilan bog‘liq bo‘lsa, ba’zilari fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish darajasi, huquqiy ong, ijtimoiy faollik, resurs yetishmovchiligi yoki davlat organlarining tayyorgarlik darajasiga borib taqaladi.

Eng avvalo, fuqarolarning o‘z huquqlarini to‘liq anglab yetmasligi, ijtimoiy faollikning sustligi va passiv fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy sheriklikni kengaytirishga to‘siq bo‘lmoqda. Bu ayniqsa, chekka hududlarda, axborotga cheklangan kirish sharoitida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jamiyatning barcha qatlamlari ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lib qolgan holatlarda davlat tomonidan taklif etilayotgan hamkorlik imkoniyatlari samarasiz bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining institutsional zaifligi ham muammoli jihatlardan biridir. Ko‘plab NNTlar yetarli moliyaviy manbalarga ega emas, strategik rejalashtirish, monitoring va hisobot berish madaniyati sust,

tashkiliy-huquqiy bilimlar yetarli emas. Bundan tashqari, grantlar olishdagi byurokratik murakkabliklar, davlat idoralari bilan bevosita muloqotdagi cheklovlar, ba’zi hollarda mahalliy hokimiyatlarning ochiqlik prinsiplariga to‘la amal qilmasligi ushbu sektor samaradorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda [16].

Uchinchidan, jamoatchilik kengashlari faoliyati va huquqiy maqomining noaniqligi amaliy ta’sirchanlikni kamaytiradi. Ularning tavsiyalari ko‘plab hollarda majburiy kuchga ega emas, ular tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning ijrosi zaif bo‘lishi yoki e’tiborsiz qolishi mumkin. Jamoatchilik asosida ishlovchi a’zolarning salohiyati, mustaqilligi, xolisligi va vakolat doirasi aniq belgilab olinmagan [17].

Shuningdek, ijtimoiy sheriklikda texnologik vositalar keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, raqamli tengsizlik, internet infratuzilmasining hududiy nomutanosibligi, axborotga ishonch darajasining pastligi kabilar ham yangi chaqiriqlar sifatida baholanadi [18].

Biroq mavjud muammolarni inobatga olgan holda, ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi istiqbolli yo‘nalishlar belgilanishi mumkin:

- NNTlar salohiyatini kuchaytirish: ularni grant va subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash, menejment va monitoring madaniyatini rivojlantirish;
- Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish: ayniqsa yoshlar va ayollar orasida jamiyatga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish;
- Jamoatchilik kengashlari faoliyatini huquqiy jihatdan kuchaytirish: ularning qarorlarini tavsiya emas, majburiy ijro mexanizmlariga yaqinlashtirish;
- Mahalliy darajadagi sheriklikni rivojlantirish: mahalla, ta’lim, tibbiyot va ekologiya sohalarida fuqarolar ishtirokini rag‘batlantirish;
- Texnologik yechimlarni chuqurlashtirish: ijtimoiy sheriklikka doir barcha axborot va ishtirok platformalarini yagona integratsiyalangan tizimga aylantirish.

Agar mazkur istiqbollar tizimli tarzda amalga oshirilsa, fuqarolarning ijtimoiy faolligi va davlat bilan hamkorlik darajasi oshib, ijtimoiy barqarorlik va islohotlarning samaradorligi kafolatlanadi [19].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy sheriklik instituti bosqichma-bosqich takomillashib, bugungi kunga kelib davlat va jamiyat o‘rtasidagi barqaror, ochiq va ishonchli hamkorlik shakliga aylanmoqda. Konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarning yaratilishi, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining qonuniy mustahkamlanishi, jamoatchilik nazorati mexanizmlarining joriy etilishi bu yo‘nalishdagi tizimli islohotlarning muhim ko‘rsatkichidir.

“Yangi O‘zbekiston” davrida ijtimoiy sheriklik raqamli boshqaruv, ochiqlik va fuqarolar bilan doimiy muloqot tamoyillariga asoslangan holda tubdan yangilandi. Jamoatchilik kengashlari, xalq qabulxonalari, ochiq byudjet portallari va elektron ishtirok platformalari orqali fuqarolarning boshqaruvdagi haqiqiy ishtiroki ta’minlanmoqda. Bundan tashqari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi munosabatlar tenglik, manfaatdorlik va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan hamkorlik tamoyili sifatida mustahkamlanmoqda.

Biroq, mavjud ijobiy tendensiyalarga qaramay, tizimda yechilmagan muammolar –fuqarolarning ijtimoiy faollik darajasi, NNTlar salohiyati, huquqiy savodxonlik, jamoatchilik kengashlari maqomi va raqamli infratuzilmaning nomutanosibligi kabi omillar – ijtimoiy sheriklikning to‘laqonli ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu sababli, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish bo‘yicha quyidagi strategik yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ijtimoiy sheriklikning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash;
- nodavlat sektorini moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- raqamli tengsizlikni bartaraf etish orqali texnologik ishtirok imkoniyatlarini kengaytirish;

- jamoatchilik muhokamalari va baholash mexanizmlarini har bir davlat organi faoliyatiga integratsiya qilish.

Umuman olganda, O‘zbekistonda shakllanayotgan ijtimoiy sheriklik modeli - fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, islohotlar barqarorligi va boshqaruv samaradorligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yo‘nalishni izchil davom ettirish demokratik jamiyat qurilishi yo‘lida strategik ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Federal Ministry for Family Affairs. Guide to Civic Engagement in Germany. – Berlin, 2019. – P. 10–13.

2. Ministry of the Interior and Safety (South Korea). Civil Society Innovation Strategy. – Seoul, 2020. – P. 15–16.

3. Government Offices of Sweden. Democracy Policy and Civil Society. – Stockholm, 2018. – P. 9–12.

4. Government of Canada. Building Partnerships: Strengthening Civic Engagement. – Ottawa: Policy Horizons

5. Sh.M.Mirziyoyev. Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari. – O‘zbekiston, 2018-yil 28-dekabr.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4975-sonli qarori. – 2021-yil 2-fevral. // lex.uz

7. Smirnova E.I. Grazhdanskoe obshchestvo i sotsial’noe partnerstvo. – Moskva: Norma, 2015. – B. 50–52.

8. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. – Cambridge: Polity Press, 1989. – P. 58–62.

9. Qosimov M. Islomda maslahat va ijtimoiy mas’uliyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011. – B. 44–47.

10. Turaev N. Ijtimoiy sheriklikning nazariy asoslari va milliy modeli. – Toshkent: Ijtimoiy Fikr, 2020. – B. 88–90.

11. Sh.M.Mirziyoyev. Xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 6–8.

12. Prezident huzuridagi Xalq Qabulxonalari to‘g‘risidagi nizom. – 2018-yil. // president.uz

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli Farmoni. – 2022-yil 28-yanvar. // lex.uz

14. Raxmatov I. Raqamli islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – B. 77–80.

15. “Jamoatchilik kengashlari faoliyatini baholash natijalari”. – Adliya vazirligi hisobotlari, 2023. // adliya.uz

16. O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari forumi materiallari. – 2022. – B. 29–33.

17. “Jamoatchilik kengashlari faoliyati to‘g‘risida” normativ-huquqiy hujjatlar tahlili. – Adliya vazirligi. – 2023.

18. “Raqamli tengsizlik va ijtimoiy inklyuzivlik”. – BMT Taraqqiyot Dasturi, 2021-yil hisobot.

19. Karimov A. Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy sheriklik strategiyalari. – Toshkent: Ilm-Fikr, 2023. – B. 81–84.